

**MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN TASHKIL ETILADIGAN
IJTIMOIY-PEDAGOGIK ISH**

*Soatova Rayxona Sadriddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va san'at fakulteti
Pedagogika yo'nalishi talabasi
rayhonasoatova@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab yoshidagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat va bu borada qilinayotgan ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy pedagog, bolalar, maktab, ota-onalar, ijtimoiy-pedagogik ish.

Annotation: This article discusses the socio-pedagogical activities organized with school-aged children and the work being done in this regard.

Key words: Social pedagogue, children, school, parents, socio-pedagogical work.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-педагогическая деятельность, организуемая с детьми школьного возраста, и работа, проводимая в этом направлении.

Ключевые слова: Социальный педагог, дети, школа, родители, социально-педагогическая работа.

Maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarnikidan keskin ravishda farq qiladi. Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik ish o'quvchilarning kamol topishi va ta'lim olishlariga bog'liq. Yildan-yilga respublikamizda maktab o'quvchilari bilan ijtimoiy-pedagogik ish olib borish rivojlanib bormoqda. Bu faoliyat tarixiy tajriba, zamonaviy pedagogik, psixologik, tibbiy, yuridik faoliyat turlariga tayanib olib borilmoqda.

Davlatimizdagi o'zgarishlar mavjud ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Umumta'lim maktabi o'zining o'quv, tarbiya va ijtimoiy funksiyalarini ko'rib chiqib birinchi o'ringa quyidagi ijtimoiy funksiyalarini qo'yishi kerak edi: Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarish lozim edi, biroq ta'lim bolalar va o'smirlar manfaati asosida tashkil qilinmoqda.

- 1.Maktabda tarbiya ishini ta'lim bilan teng yuritish
- 2.Maktab faoliyatini qayta yo'naltirish.

3.Maktab ishini, bolalar faolligini oshirish, turli bolalar klublari tuzishga asoslash. Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lim-tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda: Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari uchun o'qituvchi tomonidan talabalarga yo'riqnomalar beriladi.¹

Umumta'lim maktablarining asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lim-tarbiya olish huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Bugungi zamonaviy maktab sharoitlarida o'quvchilarining ijtimoiy-pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda: maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandiga moddiy yordam, bepul ovqatlanishlar tashkil qilishadi. Sinf rahbarlari o'zining sinfidagi bolalarning oilaviy holatini o'rghanishadi. Sinf rahbari, maktab psixolog tarbiyasi og'ir, xulqida og'ishliklar mavjud o'quvchilar bilan alohida shug'ullanishadi. Psixolog va psixoterapevtlar ota-onalarga, bolalarga maslahat berishadi va yordam berishadi.

Umumta'lim maktablari bilan hamkorlik qilayotga ijtimoiy pedagog tez-tez maktabga borib turadi hamda ota-onalar va farzandlari o'rtasidagi munosabatni yaxshilanishiga yordam beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. Ijtimoiy pedagog o'z faoliyati davrida jismoniy, ruhiy nuqsoni bor bolalarni aniqlaydi, farzandlariga qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni aniqlaydi. Bolalar tarbiyasida kelib chiqqan muammolarni bartarf qilish uchun yuridik xodimlar, militsiya xodimlari, shifokorlar xixmatidan foydalaniadi.

Ko'plab G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy pedagog maktablarning shtatlari xodimi hisoblanadi. U o'z ish faoliyati davomida ijtimoiy yordamgga muhtoj bolalarni aniqlaydi. Bu bolalar maktab darslarini o'zlashtirishga qobiliyati yetmaydigan bolalar hisoblanadi. Bu kabi o'quvchi bolalar oila yoki maktabda ruhiy tushkunlikni boshdan kechirishadi. Ular odatda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya ro'yxatida turishadi. Ba'zan bunga bolalar va ularning atrofidagilar bilan munosabatlarini oydinlashtirish yetarli yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab yoshidagi bolalar bilan faoliyat yurituvchi ijtimoiy pedagog o'quvchilarining shaxs sifatidagi huquqlarining buzilishini oldini oladi, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga ko'maklashadi, bundan tashqari ota-onalar, yuridik xodimlar, psixologlar, mas'ul amaldorlar bilan doimiy aloqada bo'ladi. Biroq bugungi kunda ijtimoiy pedagoglar umumta'lim maktablarida faoliyat yuritmayapti. Ularning vazifasini sinf rahbarlari, direktor o'rincosalari, psixologlar amalga oshirmoqda. Fikrimizcha, maktabgacha va maktab ta'lim

¹ Petrovskiy A.B. tahriri ostida: "Psixologiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1979

tashkilotlarida ijtimoiy pedagog muhim bir vazifani bajargani uchun ham, davlatimiz va mas'ul vazirliklar bu muammoga e'tibor qaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Petrovskiy A.B. tahriri ostida: "Psixologiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1979
2. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: 2009
3. Nishonova Z.T, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi. Toshkent-2003 yil
4. N. M. Shaymardanova. (2021). IJTIMOIY PEDAGOGNING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORADIGAN FAOLIYATI. Academic research in educational sciences. 257-259-betlar
5. Bo'ronova I.X. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASIDA OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT. International Conference on Developments in Education. 8-11-betlar.